

M.J. MAXMUDOV

**KREATIV YONDASHUV
ASOSIDA TALABALARNING
KOMPOZITSION QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAXMUDOV MIRALI JABBAROVICH

**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA
TALABALARNING KOMPOZITSION
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

MONOGRAFIYA

«Ilm nurli kitob»

TOSHKENT – 2024

Monografiyaning "Kreativ yondashuv asosida talabalarning kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusi, ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy va kompozitsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Kreativ yondashuv orqali talabalarning asar yaratish, fikrlarni tizimli ravishda ifodalash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish yo'llarini tahlil qiladi.

Monografiyada "Kreativ yondashuv asosida talabalarning kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari" masalasi tahlil qilinadi. Monografiyada kompozitsion qobiliyatlar va kreativ fikrlash tushunchalari, shuningdek, ularning pedagogik jarayondagi o'rni va ahamiyati aniq belgilanadi. Muallif, kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ilmiy nazariy yondashuvlarni o'rganib chiqib, kreativlik va kompozitsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Monografiyada kreativlikning ta'lim jarayonida o'rganilishi, talabalarning fikrlash va kompozitsion asar yaratish qobiliyatlarini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan.

Taqrizchilar:

Muratov X.X. - CHDPU dotsenti,

Jabborov R.R. - Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

*Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy
texnik kengashitomonidan nashrga tavsiya etilgan
(7-son bayonnoma, 2024 yil 16 dekabr)*

ISBN 978-9910-9027-0-3

KIRISH

Jahonda eng so'nggi axborot texnologiyalari tufayli ta'lim tizimi shu qadar tez rivojlana boshladiki, bugungi kunda ta'lim sohasida ikkita asosiy yo'nalishni ajratib olish mumkin. Bu yo'nalishlarni milliy va millatlararo ta'lim tizimiga ajratgan holda o'rganmoqdamiz. Milliy ta'lim yagona davlat ehtiyojlarini qondiradi, an'analarni to'playdi, ijtimoiy-madaniy tiplarni takrorlaydi, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qiladi. Millatlararo ta'lim tizimiga Boloniya jarayoniga asoslangan o'qitishning kredit-modul tizimini misol qilib keltirishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu loyiha ta'lim tizimlarini solishtirish, taqqoslash, muvofiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun mo'ljallangan. Ta'lim dasturlarining xilma-xilligi, ularning o'zgaruvchanligi va bularning barchasi ta'lim tizimini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Jahon globallashuv sharoitida yoshlarning ta'lim olish bilan birga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri – egallagan kasbi bo'yich kasbiy faoliyatini yuritish va dunyo talablari darajasida har tomonlama kompetentli mutaxassis qilib tarbiyalash zaruratini keltirib chiqardi. Mehnat bozorida ishchi kadrlar va mutaxassislarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish vazifasini oldinga qo'ymoqdaki, bunda mazkur mutaxassislarning malaka darajasi ular bajaradigan kasbiy ishlarning murakkabligidan yuqoriroq bo'lishi, bo'lajak pedagoglarning nafaqat mamlakatdagi ishlab chiqarish va iqtisodiyotning hozirgi holatiga javob bera oladigan, balki ishlab chiqarishning tez o'zgaruvchan sharoitlari va texnologiyalariga ham tezkorlik bilan ta'sir ko'rsata olish imkoniyatini beradigan kasbiy tayyorgarlikdagi kasbiy kompetensiyani tarkibiy komponentlarini kuchaytirishga asoslanadigan ishchi kadrlarning kasbiy-malakali tuzilmasini yaratish zarur

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining hozirgi bosqichida ta'lim mazmuni va metodikasiga, uning sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, ta'lim mazmunini loyihalash, talabalarning kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim amaliyotida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bunda bo'lajak chizmachilik ta'limi o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmonlari, 2018 yil 2 apreldagi "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5392-son farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarorlari, "O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3646-son qarorlari shuningdek, sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada hizmat qiladi.

I BOB. KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KOMPOZITSION QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Ta'lim jarayoni kreariv yondashuv asosida tashkil etishning zarurati

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar o'rinda ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishni takomillashtirish darajasi, salohiyati ham zarur. Talabalar mustaqil ishi mexanizmlarini takomillashtirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda oliy ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi.

Darhaqiqat, jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta'sirini tahlil etganda, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvga bo'lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini aniqladik:

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'lim tizimi, metodologiyasi va o'quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini egallashtirish iborat. Bu esa, o'z-o'zidan bo'lajak pedagoglarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya'ni ta'limga innovatsiyalar kiritishni taqozo qiladi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalar kiritishning muhim shartlaridan biri esa, o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflanadi.

Uchinchidan, pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq etishga nisbatan bo'lajak o'qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi.

Ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol

munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P. Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi.

Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi, shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning

kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi.

Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllanadi.

Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, , pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda.

"Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsada, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar;